

MIRZO ULUG‘BEK – IKKINCHI RENESSANS G‘OYALARI AMALIYOTCHISI

Shermukhammad Ernazarov¹,

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsent v.b., f.f.d (PhD)

Shermukhammad Ernazarov¹, teacher National University of the Uzbekistan, Universitetskaya str. 4, Tashkent 100174, Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10466956>

Keywords: science, Temurians, Mirzo Ulugbek, Rennessans, Observatory, sextant, new Uzbekistan.

Abstract: the article analyzed the worthy contribution of the great alloma Mirzo Ulugbek, who made a huge contribution to the development of world science, to the implementation of the ideas of the second Rennessans formed during the Timurid era, as well as the historical-spiritual significance of the scientific heritage of Mirzo Ulugbek in the construction of the third Renaissance Foundation in New Uzbekistan.

1. KIRISH

Ko‘p asrlik tariximiz o‘zida yuksalish va tanazulning qiziqarli hamda ahamiyatli bosqichlarini mujassam etgan. Tarixiy o‘tmish voqealarining haqqoniy manzarasini tiklash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunga faqat arxeologik, yozma, moddiy yodgorliklarni, numizmatik topilmalarni ishonarli va chuqur o‘rganish orqali hamda turli tarixiy fan sohalaridagi tadqiqotchilarning ilmiy salohiyatini birlashtirish bilangina erishish mumkin. Shu munosabat bilan mashhur tarixiy shaxslarning faoliyatini, ularning ilmiy va ma‘naviy merosini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu yo‘nalishda jahon ilmiy tafakkuri rivojiga munosib hissa qo‘shgan mashhur olim, merosini ehtiyohtkorlik bilan saqlagan o‘ziga xos hukmdor, davlat boshqaruvining ayrim yo‘nalishlarida o‘zining buyuk ajdodi Amir Temur an‘analarini davom ettirgan

Mirzo Ulug‘bek shaxsiga alohida e‘tibor qaratildi.

Vatanimiz tarix fani oldida o‘zbek xalqining mashhur vakillari ma‘naviy-tarixiy merosini qayta tiklash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bashariyat tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk olim Mirzo Ulug‘bek (Muhammad Tarag‘ay 1394-1449)ning hayoti va ijodi ham shular jumlasidandir.

2. METOD VA MA‘LUMOTLAR

Mustaqillik yillarida vatanimiz ilm-fanida yangicha metodologik yondashuvlar qaror topdi. Keyingi o‘n yilliklarda olimlar tomonidan mazkur muammo bo‘yicha qator ishlarga qo‘l urildi. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek tavalludini nishonlash tantanalari arafasida tadqiqot ishlari yanada faollashdi. Jumladan, Ulug‘bekning “Ziji jadidi Guragoniy”, “Tarixi arba‘ulus” kabi asosiy asarlari tarjima qilinib, nashr etildi. Bundan tashqari, respublikamizda hamda

xorijda olimning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan bir qator xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazildi. Bu ma‘lum darajada Mirzo Ulug‘bekning olim va davlat arbobi sifatidagi faoliyati tarixshunosligi doirasini yanada kengayishiga imkon berdi.

Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosi qay darajada muhim ekanligi haqida Birinchi Prezident Islom Karimov shunday degan edi: “Mirzo Ulug‘bekday benazir allomaning o‘rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo‘ymaydi... Mirzo Ulug‘bek, avvalo, ilmiy farazlar bilan emas, balki sof amaliy uslubda ijod qildi. Minglab yulduzlarni jamlagan mukammal xarita va bugungi eng zamonaviy hisoblardan deyarli farq etmaydigan mukammal astronomik jadvalni yaratdi... “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” deb nomlangan Ulug‘bek astronomik jadvali o‘rta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa olimlari orasida keng tarqalgani bu fikrimizning yaqqol isbotidir” [1].

2.1. MIRZO ULUG‘BEKNING ILMIY MEROSI

Mirzo Ulug‘bekning ilmiy-tarixiy merosini o‘rganish an‘anasi ko‘p asrlik tarixga ega. Uning hayoti va faoliyatiga daxldor masalalar G‘arbiy Yevropa, Rossiya va O‘zbekiston shrqshunoslik va tarix maktablarining vakillari olib borgan tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Asosiysi uning Vatana, aynan O‘zbekistonda XX asr davomida mazkur muammo bo‘yicha salmoqli nashrlar e‘lon qilindi. Bu davrdagi tadqiqotlar, bir tomondan, Mirzo Ulug‘bekning ilmiy-tarixiy merosini o‘rganish borasidagi muayyan yutuqlari bilan, ikkinchi tomondan esa tarixiy voqealarga noxolis baho berishlar bilan ham xarakterlanadi. Aynan tarixiy voqealikni noto‘g‘ri talqin etish mustamlakachilik davri tarixshunosligiga xos holat edi.

Mazkur dolzarb muammoning tarixini o'rganish nafaqat Mirzo Ulug'bekning hayoti va ijodi bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlardagi o'zgarishlarni kuzatishni, balki muayyan tarixiy tadqiqotning tarix fanining uzviyligini, turli davrlarda davlatchilikning siyosiy va mafkuraviy shakllaridagi umumiy jihatlarini ham namayon etadi.

XX asr boshlarida Mirzo Ulug'bek rasadxonasi o'rnini aniqlashdagi bahslar, uning ochilishi tarixi bilan bog'liq masalalar, mazkur me'moriy merosni o'rganishga arxeologiya fanida alohida e'tibor qaratilganligi bilan ham qiziqarli. Katta hajmdagi ilmiy adabiyotlarga kompleks tarzda yondashib o'rganish Mirzo Ulug'bek faoliyatining tarixiy manzarasini yaratish imkonini beradi hamda keyingi tadqiqotlar uchun aniq yo'nalishlarni belgilab olish uchun xizmat qiladi.

1994 yilning 19 martida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ilm-fan oldidagi benazir xizmatlarini hisobga olib, "buyuk o'zbek olimi, astronom, matematigi, fizigi, ma'mori, Temuriylar sulolasining munosib davomchisi yirik davlat arbobi Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning 600 yilik tavalludi munosabati bilan" 1994 yilni Ulug'bek yili deb e'lon qilish to'g'risidagi farmonga imzo chekdi [2]. Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha BMTning tarkibiy qismi hisoblangan YUNESKO xalqaro tashkiloti Bosh konferensiyasining 27-sessiyasi kun tartibiga umumjahon miqyosidagi tadbirlar qatorida Mirzo Ulug'bek yubileyi ham kiritildi.

2.2. MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING JAHONDA TUTGAN AHAMIYATI

O'tmishning tarixiy manzarasini tiklash borasida jamoatchilik keng qatlamlarining ehtiyojlari hamda O'zbekiston rahbariyatining va ilmiy-madaniy yo'nalishdagi bir qator xalqaro tashkilotlarning Mirzo Ulug'bek ilmiy tarixiy merosiga bo'lgan diqqat-e'tibori ma'lum darajada mazkur mavzuga bo'lgan qiziqishning ortganligini ko'rsatib turgan edi. Ushbu tarixshunoslik bosqichining birinchi yilida e'lon qilingan maqolalar, qaydlar, risolalar, to'plamlar va monografiyalar soni ancha ko'payib, ularda Mirzo Ulug'bekning ilmiy va davlat ishlaridagi faoliyati bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, mutaxassislarning ilmiy izohlari bilan to'ldirilgan Mirzo Ulug'bekning asosiy ishlarini tarjimai nashr qilindi.

Mirzo Ulug'bek tavalludi tantanalari, yuqorida eslatganimizdek, YUNESKO tashabbusi ostida jahon miqyosida o'tkazildi. 1994 yilning 13-16 oktabr kunlari Toshkent va Samarqandda "Ulug'bek va uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiya ishida mamlakatimiz tadqiqotchilari qatorida AQSH, Fransiya, Hindiston, Turkiya, Germaniya, Rossiya, Ukraina, Markaziy Osiyo mamlakatlaridan olimlar qatnashdilar. Tadqiqotchilar o'z chiqishlarida Ulug'bek va uning maktabi ilmiy faoliyatiga yuksak baho berdilar. Chiqishlar va

ma'ruzalar "Ulug'bekning 600 yilligi konferensiyasi materiallari" [3] to'plamida o'z aksini topdi.

1994 yilning 15 oktabrida o'tkazilgan asosiy tadbirda nutq so'zlagan O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov: "Bugun nasl-nasabimizni eslash va tiklash zamoni kelgan bir davrda, kelajagimizni qurayotgan bir vaqtda katta g'urur va iftixor bilan aytishimiz mumkin: bizlarning tomirlarimizda Ulug'bek qoni bor, yuragimizda Ulug'bek ruhi barhayotdir", [4] - degan edi.

Mirzo Ulug'bekning ilmiy-tarixiy merosini tadqiq qilish bir necha yuz yillardan beri davom etmoqda. Shunday bo'lishiga qaramay, mazkur muammo dunyo olimlari nigohini o'ziga qaratishda davom etmoqda. XX asr boshidan to xozirgi kunga qadar O'zbekistonda ham Mirzo Ulug'bekni ham o'rganish bo'yicha katta hajmdagi ilmiy ishlar yaratildi. Bu davrdagi tadqiqotlar, bir tomondan, Mirzo Ulug'bekning hayoti va ijodini o'rganishdagi jiddiy yutuqlar bilan, boshqa tomondan zo'r mahorat sohibi bo'lgan olim bilan bog'liq ayrim voqealarni ba'zi o'rinlarda mustamlaka va sovet davri tarixshunoligida noto'g'ri talqin qilish va u yoki bu tarixiy jarayonni shubhali baholash bilan kechdi.

Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek - astronom va matematik olim, davlat arbobidir. Mirzo Ulug'bek haqida Temuriylar davrining buyuk shoiri Alisher Navoiy shunday degan edi:

Temurbek nalidin Sulton Ulug'bek,

Ki olam ko'rmadi sulton aningdek.

Darhaqiqat, 40 yilga yaqin hukmronlik qilib, rasadxona qurgan va 1018 ta yulduzning jadvalini tuzgan Mirzo Ulug'bekdek hukmdor jahon tarixida kam uchraydi.

Asosiy ilmiy asari "Ziji jadidi Ko'ragoniy" bo'lib, 1437 yilda astronomik yilning uzunligini 365 kun, 6 soat 10 daqiqa 8 soniya o'lchamda aniqlagan, noaniqlik atigi 58 soniyani tashkil etadi.

Shuningdek, uning qalamiga mansub matematik asari «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola», astronomiyaga oid «Risolayi Ulug'bek» va tarixga doir «Tarixi arba' ulus» («To'rt ulus tarixi») asari hamda musiqa ilmiga bag'ishlangan 5 ta risola yozgan. Ulug'bek 6 ta: "bulujiy", "axloqiy", "tabriziy", "shodiyona", "usuli ravon", "usuli otlig" kuylarini ijod qiladi.

Mirzo Ulug'bek farmoni bilan 1417-1420 yillar madrasalar quriladi. 1420 yil Samarqandda madrasa qurdirib, islom olamining ko'plab astronom va matematiklarini taklif etadi. 1417 yil Buxoroda va 1433 yil G'ijduvonda ham madrasalar qurilgan. Ulug'bek tomonidan qurilgan madrasalar universitet vazifasini bajargan. Madrasalarda Qur'on, hadis, tafsir, fiqh (din va shariat qonun-qoidolari), riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), ilmi hay'at (astronomiya), tibbiyot, tarix, jo'g'rofiya, ilmi aruz (nazm), arab tili va morfologiyasi (qofiya) o'qitilgan.

Samarqand madrasasi zamonasining dorulfunini edi, u 2 qavatli, 50 hujrali bo'lib, har bir hujra 3 xonaga: qaznoq (omborxona), yotoqxona va darsxonaga bo'lingan, madrasada 100 dan ortiq talaba yashagan va ta'lim olgan. Samarqand madrasasi ochilgan (1420) kuni birinchi darsni

iqtidorli olim, yetakchi mudarris Shamsuddin Muhammad Havofiy o'qigan, 90 nafar talaba qatnashgan. Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid Koshoniy, Ulug'bek va uning shogirdi Alouddin Ali Qushchi turli fanlardan dars berganlar. Madrasada ilmi hay'at (astronomiya)dan Qozizoda Rumi dars bergan. Madrasasida tolibi ilmlar kamida 15-16 yil o'qigan, fanlarni o'zlashtirib, imtihon topshirganlarga "sanad" (shahodatnoma) yozib berilgan.

Mirzo Ulug'bek 1424-1429 yy. Samarqandda Obirahmat anhorini bo'yida rasadxona qurdirgan, balandligi 31 m. bo'lib ichki sahni sekstant va koridorlar bilan 3 qismga ajratilgan; rasadxona joylashgan bu mavze "Naqshi jahon" degan nom bilan mashhur bo'lgan. G'iyosiddin Jamshid boshchiligidagi rasadxonaning asosiy o'lchov asbobi - sekstant o'rnatilgan; u Sharqdagi sekstantlarning eng kattasi hisoblangan.

2.3.1. MIRZO ULUG'BEK RASADKONASI

Mirzo Ulug'bek rasadxona qoshida tashkil etgan kutubxonada 15 ming jild kitob saqlangan; rasadxona tevaragida xujralar, 2 ta chorbog': Bog'i Maydon va Chinnixonaga barpo etiladi. Rasadxonada Ulug'bek bilan birga matematik va astronomlardan "Afloqun zamon" deb nomi olgan Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid Koshoniy, "o'z davrining Ptolomey" nomi bilan shuhrat qozongan Ali Qushchi tadqiqot olib boradi. Ulug'bek rasadxonasida 1018 qo'zg'almas yulduzning o'rni aniqlanib, astronomik jadvali tuziladi. Ulug'bekning shoh asari "Zij-i jadidi Ko'ragoniy" (Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali) 2 qismdan: keng muqaddima va 1018 qo'zg'almas yulduzlar o'rni va holati aniqlab berilgan jadvaldan iborat. Ulug'bekning yil hisobi hozirgi hisobdan 1 minut 2 sekundga farq qiladi.

"Samarqand akademiyasi"ni fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchi olim Volter (1694-1778) e'tirof etgan, u "Ulug'bek Samarqandda bo'lib Akademiya (oliy ilmiy tashkilot)ga asos soldi, yer sharini o'lchashga buyurdi va astronomiya jadvalini tuzishda ishtirok etdi" deb yozgan. "Samarqand akademiyasi" - 1004 yil Xorazm poytaxti Urgandda tashkil etilgan "Donishmandlar uyi" (Ma'mun akademiyasi) dan keyingi ikkinchi "Dor ul-ilm" edi. Samarqand akademiyasi "Dor ul-ilm"ga 1429 y. asos solindi.

Mirzo Ulug'bek yoshligida Amir Temurning tizzasida o'tirib, buyuk tarixchilardan insoniyat tarixini, dunyo siyosatini eshitgan edi. Uning «To'rt ulus tarixi» insoniyat tarixiga bag'ishlangan bo'lib, bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. Bu asarda hozir Yevrosiyoda yashayotgan xalqlarning ajdodlari aka-uka, bir-biriga qarindosh ekanligini yozadi. YA'ni, Nuh payg'ambarning nevaralari, Yofasning o'g'illari: Turk, Xazar, Saqlab (slavyan), Rus, Ming, Chin, Kamari, Tarix mintaqada yashayotgan xalqlarning ajdodlaridir. Hozirgi globallashtirish, integratsiyalashtirish va geosiyosiy jarayonlarda bu qarindoshlikni anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mashhaddagi binolarining birida Ulug'bek qalamiga mansub ushbu bayt topilgan:

Harchand mulki husn ba zari nigin tust
sho'xi makun ki chashmi bidon dar kamintust [5].

Ma'nosi: Harchand husn mulki sening hukmingda bo'lsa ham, sho'xlik qilmagilki sen uning nazari ostidasen.

Navoiyning "Majolis un-nafois" va Abu Tohirxojaning "Samariya" asarlarida ham uning she'rlaridan namunalar keltirilgan. Uning davrida ko'pgina asarlar arab va fors tilidan eski o'zbek tiliga tarjima qilingan. Ulug'bek tashkil etgan boy kutubxonada turli fanlarga oid 15 mingdan ortiq jildli kitob bo'lgan. Uzoq va yaqin o'tmish mualliflari (Darvishali Changiy, Fitrat va boshqalar)ning ta'kidlashicha, Ulug'bek yoshligidan o'zga fanlar qatori musiqa ilmidan saboq olib, bir qator kuy va usullar yaratgan, bu sohaga oid risola ham yozgan.

Uzoq va yaqin o'tmish mualliflari (Darvishali Changiy, Fitrat va boshqalar)ning ta'kidlashicha, Ulug'bek yoshligidan o'zga fanlar qatori musiqa ilmidan saboq olib, bir qator kuy va usullar yaratgan, bu sohaga oid risola ham yozgan.

Ulug'bekning hayoti va faoliyati haqida pyesa (M.Shayxzoda, "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi), roman (O. Yoqubov, "Ulug'bek xazinasi"; S.Borodin, "Samarkand osmonida yulduzlar"), opera (A.Kozlovskiy, "Ulug'bek"), poema (M.Boboyev, "Ulug'bek"), balet (M.Bafoyev, "Ulug'bek burji"), film (Rejissor Latif Fayziyev "Ulug'bek yulduzi", 1965 yil) va boshqa asarlar yaratilgan.

Ulug'bek tavalludining 600 yilligi 1994 yil aprelida Parijda, oktabrda Toshkent va Samarqandda tantanali ravishda nishonlandi va xalqaro konferensiyalar o'tkazildi. Shu yili Toshkentda Ulug'bek haykali o'rnatildi.

Ulug'bek siymosi Pulkovo rasadxonasi, Moskva universiteti konferens zalida dunyodagi mashhur olimlarning portretlari qatoridan joy olgan. Samarqandda Ulug'bekning memorial muzeyi tashkil etilgan. Toshkentda O'zbekiston milliy universiteti, tuman, planetariy, ko'cha, mahalla, metro stansiyasi, istirohat bog'i, shaharcha Ulug'bek nomi bilan ataladi. Farg'ona pedagogika universitetiga, Samarqand arxitektura qurilish institutiga, Kitob xalqaro kenglik stansiyasiga, qishloq, maktab va boshqalarga ham alloma nomi berilgan.

2014 yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya institutining Maydonak observatoriyasida izlanish va kuzatuvlar olib borayotgan ilmiy xodimlar Bahodir Hafizov va Aleksey Sergeev yangi, shu paytgacha fanda noma'lum kichik sayyorani kashf etishga muvaffaq bo'lishdi. Ushbu sayyorani ilk marotaba 2007 yilning kuz oylarida Maydonak observatoriyasidagi "AZT - 22" rusumli bosh teleskop monitorida turg'un yulduzlar fonida nisbatan tezroq harakatlanayotgan bir obyekt kuzatilgan edi.

Samoviy jismning osmon koordinatalari va taxminiy orbitasi elementlarini aniqlab, ma'lumotlarni zudlik bilan AQShdagi Harvard

Xalqaro kichik sayyoralar markaziga yuborildi. Tez kunda markazdan ushbu obyekt hech bir katalogda qayd etilmagani, unga dastlab “2007 TU2” raqami berilgani to‘g‘risidagi xabar keldi. Shunga qaramay, mazkur holat samoviy jism haqiqatan ham yangi sayyora ekanini asoslamasdi. Negaki, ilk hisob-kitoblarga ko‘ra, kichik sayyoraning Quyosh atrofida aylanish davri 4,5 yilni tashkil etishi aniqlangandi. Bu esa, uning orbitasini to‘liq o‘rganish uchun hali uzoq kuzatishlar olib borish talab etilishini bildiradi.

Shu tariqa sayyora yana ikki yil davomida uzluksiz kuzatildi, uning orbitasi elementlari aniqlandi. Ma‘lum bo‘lishicha, sayyora boshqa kichik turdagilari kabi Mars va Yupiter oralig‘ida joylashgan bo‘lib, uning umumiy hajmi taxminan 50-70 metrni tashkil etadi. Shundan keyin 2009 yili Harvard Xalqaro kichik sayyoralar markazi tomonidan bu chindan ham shu paytga qadar fanga noma‘lum bo‘lgan ulkan ilmiy yangilik ekani tasdiqlandi hamda unga xalqaro kataloglarda doimiy 210271 raqami berilgani ma‘lum qilindi.

XX asr oxiri, XXI asr boshlariga kelib, ilm-fan yana yuksak cho‘qqiga chiqa boshladi. Yangi zamonaviy texnologiyalar ishlab chiqarildi, ular yordamida barcha sohalar qatori astronomiya fani ham rivoj topa boshladi. O‘zbek astronomlari ham rivojlangan mamlakatlar qatorida turib, yana bir noma‘lum sayyorani kashf etishda mualliflik qilgani biz uchun fahrlidir.

Bunga qadar olimlar tomonidan aniqlangan kichik sayyoralaridan beshtasi mamlakatimiz nomi va tarixi bilan bog‘liq holda atalgan. Bular, hususan: “O‘zbekiston”, “Avitsenna”, “Ulug‘bek”, “Beruniy”, va “Xorazmiy” nomidagi kichik sayyoradir. E‘tiborlisi, ushbu samoviy jismlar turli yillarda mahalliy olimlarimiz emas, aksincha xorijiy astronomlar tomonidan kashf etilgan.

O‘zRFA astronomiya instituti olimlari kichik sayyora bilan bog‘liq katta kashfiyotga nom berish yuzasidan respublika rahbariyati taklifi bilan sayyoraga jahoning eng ko‘hna va go‘zal shaharlaridan biri astronomiya fanining “Oltin beshigi” sanalmish Samarqand shahri nomi berildi. Bu haqda 2010 yil 27 mayda chop etilgan Harvarddagi Xalqaro kichik sayyoralar markazining 70135 sonli sirkulyarida butun dunyo bo‘ylab xabar tarqatildi.

Shu o‘rinda Prezident I.A.Karimovning 1996 yili parijda YUNESKO bosh kotibi Federiko Mayor bilan bo‘lgan suhbatini keltiramiz. “O‘shanda janob Mayor Ulug‘bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob kitoblari bugungi kunda kompyuter yordamida tekshirib ko‘rilganda, atigi bir necha daqiqaga farq qilishi aniqlandi, degan gapni aytib qoldi. Shunda men unga javoban: yo‘q janob Fedriko Mayor, Ulug‘bek xato qilgan bo‘lishi mumkin emas, balki kompyuter xato qilgan bo‘lishi mumkin, degan edim. Garchi bu gap do‘stona lutf tariqasida aytilgan bo‘lsa-da, o‘ylaymanki, uning zamirida chuqur haqiqat mujassam” .

XULOSALAR

Mirzo Ulug‘bek jahon taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk alloma bo‘lib, Temuriylar davrida shakllangan Ikkinchi Rennessans g‘oyalarini amalga oshirishda munosib hissa qo‘shdi. Eng muhimi, Temuriylar davrida Turkistondadagi tinch hayot taraqqiyotga shart-sharoit yaratdi. YA’ni urushlar deyarli Turkistondan tashqarida olib borildi. Bu esa ilm-fan taraqqiyoti uchun zamin bo‘ldi.

Temur va temuriylar davrida Samarqandda Mirzo Ulug‘bek ilmi hay‘at maktabi, Hirotida esa Boysung‘ur akademiyasining musavvara janri bo‘yicha Hirot, Samarqand, Buxoro maktablari va Akbar Badiiy akademiyasi turkiy milliy madaniyatning shon-shavkatini ko‘rsatar edi. Mafkuraviy jihatdan baholaganda, Amir Temur va temuriyodalarning turkiy til mavqeini ko‘tarish uchun olib borgan kurashi, faqat ilmiy jihatdan, til, adabiyot, san‘at jihatidan muhim bo‘lib qolmay, millat sifatida shakllanishida, o‘z taqdirini belgilash va milliy davlatchiligini yuksaltirishda favqulodda darajada muhim edi.

MINNATDORCHILIK

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan Uchinchi Rennessans poydevorini qurishda Mirzo Ulug‘bek yaratgan asarlar g‘oyaviy-ma‘naviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mirzo ulug‘bekning ilmiy merosi yoshlarni vatanparvarlik, tarixga hurmat, yurtga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalaydi. Shuningdek, uning tarixiy hayoti, shaxsi, asarlari O‘zbekistonni dunyoga mos ravishda rivojlantirishda, jamiyat a‘zolarini Yangi O‘zbekiston g‘oyasi asosida birlashtirishda tarixdagi bunyodkor g‘oyalardan saboq olgan holda tarixiy bilimlarga e‘tibor qaratishga undaydi

ADABIYOTLAR

[1] Каримов И.А. Улуғбек руҳи барҳаёт // Каримов И.А. Биздан озода ва обод Ватан қолсин. 2-том. Тошкент: Ўзбекистон, 1996. 320 б.

[2] Халқ сўзи. 1994, 20 март.

[3] Мирзо Улуғбек таваллудининг 600 йиллигига бағишланган халқаро илмий анжуман маърузаларининг материаллари. Тошкент-Самарқанд, 1994 йил, 12-16 октябрь.

[4] Каримов И.А. Улуғбек руҳи барҳаёт // Каримов И.А. Биздан озода ва обод Ватан қолсин. 2-том. Тошкент: Ўзбекистон, 1996. 320-бет.

[5] Санакулов У., Ҳандамова М., Мамараймов Қ. Амир Темур салтанатининг донишманд вариси. – Т.: “наврўз”, 2014. – 25 б.